

SIRDARYO VILOYATI AHOLI JON BOSHIGA ISHLAB CHIQRILGAN SANOAT MAHSULOTLARINING DINAMIK TAHLILI (SIRDARYO TUMANI MISOLIDA)

Egamqulov Husniddin Erkaboyevich

Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

Tuxtamuratova Zarnigor Baxtiyor qizi

Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Maqolada Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani sanoat tarmoqlari va uning aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining hajmi keltirib o'tilgan. Sanoat ishlab chiqarishiga oid ma'lumotlar, ko'rsatgichlarning dinamik tahlili keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Sanoat, Sanoat tarmog'i, aholi, aholi jon boshi, sanoatda band aholi*

ДИНАМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВОДСТВА ПРОМЫШЛЕННОЙ ПРОДУКЦИИ НА ДУШУ НАСЕЛЕНИЯ В СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ (НА ПРИМЕРЕ СЫРДАРЬИНСКОГО РАЙОНА)

Аннотация: *В статье рассмотрены отрасли промышленности Сырдарьинского района Сырдарьинской области, объем произведенной промышленной продукции на душу населения, представлены данные о промышленном производстве и динамический анализ показателей.*

Ключевые слова: *Промышленность, Производственная сеть, население, численность населения, население, занятое в промышленности.*

DYNAMIC ANALYSIS OF INDUSTRIAL PRODUCTS PRODUCED PER CAPITA OF SIRDARYA REGION (IN THE EXAMPLE OF SIRDARYA DISTRICT)

Abstract: *In the article, the industrial sectors of Sirdarya district of Syrdarya region and the volume of industrial products produced per capita are mentioned. The data on industrial production and the dynamic analysis of indicators are presented.*

Key words: *Industry, Industrial network, population, population head, population employed in industry*


Sirdaryo tumani — Sirdaryo viloyatidagi tuman. 1939-yil 10-fevralda tashkil etilgan. Shim.sharqdan Toshkent viloyati, jan.sharqdan Sayxunobod, janubidan Guliston tumanlari, g'arbdan Qozog'iston Respublikasi bilan chegaradosh. Maydoni 0,55 ming km². Aholisi o'rtachadan yuqori darajada 118,7 ming kishi. Tumanda 2 shahar 4 shaharcha, 8 qishloq fuqarolari yig'ini (Paxtazor, Sirdaryo, Turon, Usmon Yusupov, Xalqobod, Cholto'qay, Sholikor, Haqiqat) bor. Sirdaryo tumani meridional tik cho'zilgan. Markazi — Sirdaryo shahri.

Sirdaryo tumani haqida umumiy ma'lumotlar

Tuman nomi	Sirdaryo
Tashkil topgan sanasi	1939-yil 10-fevral
Aholi soni(ming kishi)	118.7ming kishi
Tuman markazi	Sirdaryo shahri
Viloyatda aholining ulushi	15,3 %(2012-yil)
Relyefi	Tekislik

Kirish.Sanoat O'zbekiston milliy iqtisodiyotining moddiy ishlab chiqaruvchi muhim tarmog'i bo'lib hisoblanadi.Darhaqiqat, mamalakat xo'jaligi barcha tarmoqlaridagi texnika taraqqiyoti va mamlakatning mudofaa qudrati sanoatga bog'liq hisoblanishi bejiz emas.Sanoatda band aholining ulushi qanchalik ko'p bo'lsa viloyat,tumanlar uchun quvonarli holat hisoblanib,ya'niki mamalakatimiz rivojiga ulkan hissa qo'shayotganligi bilan izohlanadi.

Viloyat bo'yicha jami sanoat ishlab chiqarish hajmida tumanlar ulushi(jamiga nisbatan foiz hisobida)



Manba:Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'limotlari

Viloyat bo'yicha jami sanoat ishlab chiqarish hajmida tumanlar ulushi(jamiga nisbatan foiz hisobida).Sirdaryo tumanida viloyat bo'yicha jami sanoat ishlab chiqarish hajmi ko'rsatgichlar bo'yicha 2010-yilda 13,7% ni tashkil etgan bo'lsa,2015-yilda 17,9% ni tashkil etib 5yil davomida 4,2%ga oshganligi bilan qayd etilmoqda.2020-yilga kelib bu ko'rsatgichlar 16,7 %ni ifodalagan bo'lsa,2022-yil yanvar-dekabr oylari holatiga ko'ra 21,6%ga oshganligi qayd etilib,o'sish tendensiyasiga ega bo'lganligini bilib olishimiz mumkin.

<u>Xududlarda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti</u>													
<u>(ming so'm)</u>													
												13.1 ilova	
	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021 yil	yanvar- dekabr 2022 yil
Sirdaryo	1285,8	1651,9	2051,1	2548,3	3067,4	3598,6	4420,5	4702,3	6274,3	8700,8	9361,4	11282,7	13716,7
Sirdaryo	1143,1	1742,0	2277,7	3023,5	3785,9	4224,1	6015,1	6318,0	9743,1	9794,2	10352,0	15098,4	19661,5
<p>Manba:Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'limotlari Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi (ming so'm).2010-yilda Sirdaryo tumanida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 1143,1 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa,2015-yilda bu ko'rsatkichlar yuqori darajada o'sish tendensiyasiga ega bolib4224,1 ming so'mni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.2020-yilga kelib tumanda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining hajmi yuqori darajada o'sganligi qayd etilib, 10352,0 ming so'mni tashkil etgan.Darhaqiqat Sirdaryo tumanida yildan-yilga bu ko'rsatkichlar o'ish tendensiyasini ifodalamoqda.</p>													
Tumanlar bo'yicha sanoat mahsuloti hajmi													M
<u>(amaldagi narxlarda; mlrd. so'm)</u>													
												10.1 ilova	
	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020 y.	2021 y.	yanvar- dekabr 2022 y.
Sirdaryo	926,8	1211,4	1528,1	1929,3	2363,1	2820,6	3522,3	3806,5	5163,1	7293,0	7990,9	9813,3	12175,2
Sirdaryo	126,5	197,4	260,8	350,4	445,6	505,2	730,2	777,1	1215,3	1242,9	1336,4	1980,8	2625,0

Manba:Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'limotlari

Sirdaryo viloyatining Sirdaryo tumani bo'yicha sanoat mahsulot hajmi (amaldagi narxlarda,mlrd so'm).2010-yilda Sirdaryo tumanida sanoat mahsuloti hajmi 126,5 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich2015-yilga kelib 505,2 mlrd so'mni tashkil etganligi bilan qayd etiladi,Ya'niki 2010-yilga nisbatan 2015-yilda qariyb 378,7 mlrd so'mga oshganligini ko'rishimiz mumkin.2020-yilga kelib bu ko'rsatkichlar13364 mlrd so'mni tashkil etgan .Yuqoridagi ma'lumotlardan bilishimiz mumkinki Sirdaryo tumanida sanoat mahsuloti hajmi yillar kesimida o'sish tendensiyasiga egaligi ko'rsatilmoqda.

XULOSA.Sirdaryo tumani sanoatining yildan-yilga rivojlanib borayotganligi,ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish,tuman aholisining sanoat tarmoqlariga band bo'layotganligi va mehnat resurslariga jalb etilayotganligi,mineral resurslar va mehnat resurslaridan samarali foydalanish hamda ekologik muammolarni hal etish bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqilayotganligi bejiz emas.Yuqoridagi statistik raqamlar va ularning qisqacha tahlilidan bilib olishimiz mumkinki,tuman sanoat mahsulotining hajmi yildan-yilga o'sib borayotganliginini kuzatishimiz mumkin.Tumanda sanoat mahsulotlarining hajmi yildan-yilga oshib borayotganligi,Vatanimiz sanoatini yuksaltirishga ,aholi bandligini ta'minlashga o'z hissasini qo'shish kabi ishlarni amalga oshirish asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. NOZOEKOLOGIK VAZIYAT VA AHOLI KASALLANISHINING HUDUDIIY TAHLILI
Komilova N.M.,Muxammedova N.J.,Karshibayeva L.K.,Egamqulov H.E.
- 2.TIBBIY-DEMOGRAFIK VAZIYAT VA UNING HUDUDIIY JIHLTLARI (XOVOS
TUMANI MISOLIDA)Egamqulov H.E,Raimjonova.R.A,Tuxtamuratova Z.B
- 3.Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.
- 4.Soliyev A.S.O'zbekiston geografiyasi(O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy
geografiyasi)-T.Universitet,2014
- 5.SIRSTAT
- 6.<http://siat.stat.uz>